



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLISH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Adilova Dilorom Axmedovna

Kattaqo'rg'on tuman 17-IDUM Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA PEDAGOGIK QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Annatasiya. Ushbu maqolada zamonaviy o'qituvchining o'zini-o'zi rivojlantirishda kasbiy kompetentlikning ahamiyati va tutgan o'rni ochib berilgan. Maqolada boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari o'quv faoliyatini boshqarishda va o'quvchilarga ta'lim - tarbiya berishda pedagogik qobiliyatini rivojlantirishning psixologik va pedagogik jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Kompetentlik, kasbiy kompetentlik, qobiliyat, pedagogik qobiliyat individual, psixologik kompetentsiya, pedagogik yondoshuv.

Bizga ma'lumki keying yillarda mamlakatimiz ta'lim tizimida tub o'zgarishlar ro'y bermoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108 va "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ – 4884-son hamda 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son Qarorlari boshlang'ich sinf o'qituvchilariga yangi imkoniyatlar eshigini ochdi.

Shaxsiy mas'uliyat o'z-o'ziga beriladigan bahoning sog'lom darajasiga yetishmoqchi bo'lsangiz, o'zingizni boricha qabul qila olishingiz va o'z qarorlaringiz hamda xatti-harakatlaringizdan cho'chimasligingiz lozim. Ammo o'z-o'ziga beriladigan bahoning shakllanish jarayonida boshqa bir muhim xislat ham mavjudki, u



ko‘pincha, nazardan chetda qoladi. Bu – o‘z kelajagingiz uchun mas‘uliyatni o‘z qo‘lingizga olish qobiliyatidir.

Pedagogik–psixologiyada o‘qituvchi qobiliyatining cheklangan turlari yo‘q. Pedagogik qobiliyat turlari fanning, jamiyatning rivojlanishiga qarab ko‘payib va o‘zgarib turishi mumkin. Falsafada qobiliyat uzoq vaqtgacha “o‘zgarmas irsiyat” nasldan – naslga o‘tuvchi jarayon sifatida talqin etilgan. Olimlarning uzoq yillar olib borgan ilmiy-tadqiqotlari va kuzatishlari natijasida pedagogik qobiliyatning quyidagi asosiy sifatlari ajratib ko‘rsatilgan:

1. O‘z kasbiga muhabbat, o‘quvchilarni seva olishi.
2. Mutaxassislik fanini mukammal bilishi, unga qiziqishi.
3. Pedagogik taktga (odob va go‘zallikka) ega bo‘lish.
4. Bolalar jamoasiga singib keta olish.
5. O‘z mehnatiga ijodiy yondashish.
6. Javobgarlikni his etish.
7. Tarbiyaviy bilimlarni egallaganligi.

O‘qituvchi faoliyatidagi pedagogik qobiliyatning o‘ziga xos tizimlari mavjud. Qobiliyatlar tizimi quyidagi xususiyatlari bilan farq qilinadi:

- asosiy xususiyatlar;
- tayanch xususiyatlar;
- yetakchi xususiyatlar;
- yordamchi xususiyatlar.

Shuningdek pedagogik qobiliyatlarning tayanch xususiyatlari kuzatuvchanlik – ko‘ra bilish ko‘nikmasidir. Bu – individual narsaning o‘ziga xos tomonini, ijodiy faoliyat uchun boshlang‘ich materialni ko‘ra bilishi demakdir. Rassomning kuzatuvchanligi, tabiatshunos olimning kuzatuvchanligidan farq qilishi o‘z-o‘zidan ravshan. Ularning kuzatuvchanligi turlicha yo‘nalishda bo‘lganligi sababli, har biri o‘z tafakkuri va dunyoqarashiga ega. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida esa har tomonlama kuzatuvchan bo‘lishi muhim albatta.

Qobiliyatning yetakchi xususiyati ijodiy tasavvur qilishdir. Bu xususiyat faqat rassomga, matematika o‘qituvchisiga, adabiyotshunosga xos bo‘lmasdan, balki aynan barcha fan o‘qituvchilariga ham tegishli.

Har qanday kasb sirlarini mukammal egallash uchun qobiliyat kerak. Pedagogik qobiliyat sog‘lom o‘qituvchidagina shakllanadi. Biroq u yuqori, o‘rtacha va past darajada bo‘lishi mumkin. Ushbu turli darajadagi qobiliyatlarda mujassamlashgan hislatlar va xususiyatlar orasida ba‘zilari yordamchi rol o‘ynaydi.

Pedagogik qobiliyatlar tizimiga kiradigan yordamchi xususiyatlar va hislatlar quyidagilardan iborat:

- aql–idrokning muayyan turlari, hozirjavoblik, kamchiliklarga tanqidiy e‘tibor, sobitqadamlik;
- o‘qituvchining nutqi: notiqlik san‘ati, so‘z boyligining teranligi;
- aktyorlik xususiyati: mimika va pantomimika, xayoliy fantaziya ishlata olish, ruhiy hissiyotni jilovlay olish.
- pedagogik takt va pedagogik nazokatga ega bo‘lish.



Shuningdek o'qituvchining qobiliyatlari uning mahoratida namayon bo'ladi. Pedagogning mahorati bevosita kasbiy-pedagogik faoliyatda ko'rinadi. Shu sababli u pedagogik jarayonning umumiy mohiyatini chuqur anglay olishi, bu jarayonda ustuvor ahamiyat kasb etadigan qonuniyatlardan xabardor bo'lishi, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish mexanizmlarini puxta egallay bilishi lozim. Ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi bo'lgan pedagogning pedagogik mahorati uning shaxsi, ish tajribasi, fuqarolik maqomi, mutaxassis sifatidagi mavqeyi, u tomonidan pedagogik texnikaning yetarli darajada egallanganligi, kasbiy faoliyatning individualligidan dalolat beradi. Pedagogik mahorat yaxlit tizim bo'lib, uning tarkibida bir qator sifatlar ko'zga tashlanadi.

Tarkibiy qismlar:

1. Pedagogik bilimdonlik.
2. Pedagogik qobiliyat.
3. Pedagogik muloqot madaniyati.
4. Pedagogik relaksasiya.
5. Pedagogik takt.
6. Pedagogik texnika.
7. Nutq texnikasi.
8. Kommunikativ ta'sir ko'rsatish qobiliyati.
9. Pedagogik madaniyat.
10. Pedagogik ijodkorlik.
11. Pedagogik odob.
12. Pedagogik tajriba.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, zamon talablariga javob bera oladigan zamonaviy boshlang'ich sinf o'qituvchisida o'zini- o'zi rivojlantirib borishga istak va motivatsiya bo'lishi zarur. Shuningdek, o'qituvchi shaxsi, uning kasbiy, ma'naviy va madaniy hamda pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirib borishi, sifat va samaradorlikni ta'minlashga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: «O'zbekiston», 2021.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
3. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son Qarori.
6. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – M.: Znanie, 1996.